

## SHOIR G‘URBAT XO‘QANDIY IJODINING MANBALARIGA DOIR

*Askaraliyev Rasulxon Axatjon o‘g‘li*

*Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Adabiyotshunoslik(o‘zbek adabiyoti) yo‘nalishi 2-bosqich magistranti*

*Ramazonov Nodir Normurodovich*

*Ilmiy rahbar, Adabiyot fanlari falsafa doktori(PhD)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola XIX asr oxiri XX asr boshidagi Qo‘qon adabiy muhitining yorqin namoyondalaridan biri bo‘lgan Abdulloh Maxdum Kaimberdi o‘g‘li G‘urbat Xo‘qandiy ijodiga bag‘ishlangan. Maqolada shoir ijodining o‘rganilish manbalariga doir ma‘lumotlar mavjud. Shu bilan bir qatorda G‘urbat Xo‘qandiy hayoti va ijodiyodiyoti borasidagi fikrlar berib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** G‘urbat Xo‘qandiy, mumtoz adabiyot, Farg‘ona adabiy muhiti, zullisonayn shoir, ilohiy ishq, muhabbat lirikasi, g‘azal janri, tasavvuf, hajviyot, sayohatnoma, arzi hol, hijron motivi, badiiy tasvir vositalari.

Mumtoz adabiyotimizning so‘ngi davrlaridagi zabardast vakillaridan biri bo‘lmish “G‘urbat” taxallusi ostida ijod qilgan asl ismi Abdulloh Maxdum Karimberdi o‘g‘li bo‘lib, taxminan 1850-53-yil 1918-yillarda yashab ijod qilgan. Shoir zullisonayn shoir sifatida turkiy va fors-tojik tillarida ijod qilgan. Diniy-tasavvufiy, pand-nasihat, dunyoviy mavzularda ijod qilgan. Uning ijodidan yor tasviriga oid go‘zal baytlar o‘rin egallagan. Shu bilan birga ijtimoiy hayotni hajvga oluvchi ko‘plab satrlar ham mavjud. Ilohiy ishqqa bag‘ishlangan baytlar ijodining salmoqli qismini tashkil etgan. Foni va boqiy dunyoga oid mavzularda ham ijod qilgan.

G‘urbat Farg‘ona shoirlaridan bo‘lib, Farg‘ona viloyatiga tobe bo‘lgan Beshariq tumani Yakkatut qishlog‘ida tug‘ilgan. Otasi Mulla Muhammad Karim ismli dehqon oilasida dunyoga kelgan. Qo‘qonda Muhammadalixon madrasasida tahsil olgan. Muqumiy va Muhiy kabi shoirlar bilan bir adabiy muhitda ijod qilgan. Talabalik yillaridayoq ijodiy mahorati namoyon bo‘lgan. Ijoddan tashqari dehqonchilikni kasb qilib, Haj qilish uchun Hijozga safar qilgan. O‘z zamondoshi va xamqishlog‘i bo‘lmish Mulla Kimyo u kishi haqida “o‘tkir qora ko‘zli, ozoda kiyimli, bishida ipakdan kichik salla, ko‘zida ko‘zgu, oyog‘iga toza etik kiygan,



mahobatli o‘tkir kishi edi” deb tavsiflaydi. Shoirning Sirojiddin Karimov ismli o‘g‘li borligi haqida ma’lumotlar mavjud. Konibodom shahrida yashab tirikchilik bilan shug‘ullandi va shu yerdan bir ayolga uylangan. Umrining so‘ngida shu joyda yashab 1922- yilda vafot etgan.

Shoirning bir qo‘lyozma devoni bo‘lib, o‘z qo‘li bilan bitilgan ammo xat borasida biroz noziklik mavjud emas. Sheriyatida badiiy bo‘yoqdorlik kam uchraydi, asosan, hayotiy yo‘sinda oddiylik bilan qalam tebratgan. Umrining oxirlarida so‘fiylik arkonlarini ushlab, shu yo‘sinda sherlar ham bitgan. Uning Muqumiy kabi sayohatnomalari ham mavjud. Zamona shaxslariga nisbatan hajviyalari, arzi hollari baytlarini boyitgan[1,31]. Adibning o‘z qo‘li bilan bitgan bir devoni bo‘lib, u kundalik sifatida yozilgan. Umrining oxirigacha bo‘lgan davrdagi she‘rlari bu devondan o‘rin olgan. Yozgichlarini ushbu kundalikka muntazam yig‘ib borgan. Shoir shikasta xatida she‘r bitgan. Kundalik to‘liq devon hoida shoir tamonidan shakllantirilmagan ammo unga G‘urbat devoni sifatida qaraladi. Devon oddiy daftar varoqlaridan tashkil topgan bo‘lib, har bir betda 8 baytdan she‘r o‘rin olgan. Devon 570 bet, 285 varoqdan iborat bo‘lib, 17.5\*22 sm hajmga ega[2,79].

G‘urbat ijodida ilohiy ishq avvalgi o‘rinlarda turadi. U muhabbat zamirida rohat va zahmat yotishini devoni boshida ilova qiladi. Shoir lirikasining asosini ijtimoiy qarashlar egallagan. G‘urbat ham turli janrlarda qalam tebratgan. Uning adabiy merosi 10000 misraga yaqin bo‘lib, ijodidan 500ga yaqin she‘rlar o‘rin egallagan bo‘lib, asosiy qismini g‘azallar tashkil etadi. Shoir g‘azal, muxammas, ruboiy, murabba’, marsiya, tarix va chorbayt janrlarida ijod qilgan. Taxminan ijodiy merosida 442ta g‘azal, 25ta muxammas, 12ta ruboiy, 7ta marsiya, 7ta murabba’, 1ta tarix va 2ta chorbayt mavjud. Hozirda “Devoni G‘urbat” qo‘lyozmasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, G‘urbat Xo‘qandiy ijodini o‘rganish, uni adabiyot ixlosmandlari hamda ilm ahliga tatbiq etish lozim deb bilamiz. Uning o‘z davrida mashhur bo‘lgan sayohatnoma, arzi hol, hajviyalarini ommaga tanitish ushbu ijodkor va janrlarning ko‘lamini salmoqli ekanini ko‘rsatadi. Sayohatnoma janrida faqat Muqumiygina emas, balki uning ko‘plab zamondosh shoirlari ijod qilganini ko‘ramiz. O‘zbek mumtoz adabiyotining shunday o‘rganilmay qolayotgan qirralarini ochish, ularning adabiy merosi bilan tanishish, ommaga tatbiq etish, xalqning ma’naviy kamolotining yuksalishiga ham hizmat qiladi.



G‘urbat ijodida muhabbat lirikasi katta o‘rin egallaydi. Uning g‘azal, muxammas, murabbalarida sevimli yorga bo‘lgan samimiy muhabbat, sadoqat, yorning iltifotsizligi, beparvoligidan shikoyat motivlari kuylanadi. Shoir ishq-muhabbatni ulug‘lab, oshiqning tortgan azob-uqubatlari, ichki kechinmalarini yorqin misralarda tarannum etadi.

Ey sho‘xi moh tal‘at, husning guli chamandek,  
Ishking g‘amida kuymas. xech knm migoli myandek.  
Doyeilki darmn hpjron chekmakka yu h a p sh ichk,  
Pinhop gamimni aytsam Farhodi ko‘hkandek (1,269-bet).

G‘urbat lirik qahramoni ishq yo‘lida kuygan, dardi Farhodnikidan kam emas. U yori yodida nola qilsa, hammayoq larzaga keladi, g‘am-alamlarining hisobi yo‘q. Anglashilib turibdiki, shoir o‘z sevgisini har narsadan ustun qo‘yadi. G‘urbat she‘rda to‘g‘ridan-to‘g‘ri mahubasiga murojaat qilib, uni tasvirlar ekan, agar baytning birnichi misrasi maqtov bo‘lsa, ikkinchisida oshiqning kechinmalari beriladi. Shunday qilib, shoir yorining go‘zalligiga o‘zining pok muhabbatini qarama-qarshi qo‘yadi. Sevgi va sevgilini tasvirlashda bu uslub birmuncha ta‘sirlidir.

G‘urbatning quyidagi matla bilan boshlangan g‘azalini “Ishq qasidasi” desak bo‘ladi. Bunda ishq, uning azob-uqubatlari, hijronlari haqida shoir o‘z qarashlarini ifodalaydi:

Do‘stlarim, majnunsifat qilsa meni tug‘yoni ishq,  
Bo‘lmayinmu bu sababdan doimo hayroni ishq.  
Boda hajridin dari mayxonada ma’yus edim,  
To‘ldurub tutti qadahni soqiyi davroni ishq (1,269-bet).

Ko‘rinib turibdiki, shoir sevimli yoriga murojaat etib, ishq haqida fikr yuritar ekan, muhabbatsiz kishilarga bo‘lgan nafratini bildiradi. Shu bilan birga, u o‘z seviklisidan uzoqda, tanholikda kechirgan ruhiy azoblari haqida ham yozadi:

Muyassar qilmadi gardun menga vasli nigorimni,  
Olib hijron g‘ami dildin tamomi ixtiyorimni.  
Agar menga muyassar bo‘lsa to vasli firoq ichra,  
Qudumiga qilurmen sajda payki shahsuvorimni.

Lirik qahramon yorining vasliga yetisha olmay hijron azobida qiynaladi. U sabo orqali hol-ahvoli ruhiyasini yoriga ma‘lum qiladi. G‘urbat she‘rda hijron kechinmalarini obrazli tilda ifodalar ekan, har bir fikriga mos o‘xshatishlar, badiiy

tasvir vositalaridan o‘rinli foydalanadi. U firoq o‘ti kuchini ko‘rsatmoqchi ekan, bu o‘t oshiqning butun jismiga tushib, kuydirib, uni kul qildi, deydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Po‘lotjon domullo Qayyumov. “Tazkirai Qayyumiy” 3-tom. Toshkent:1998. 31-bet.
2. Собрание восточных рукописей академии наук узбекской ССР 10-том. «Фан». Ташкент:1975. 79-странице.
3. Rasulxon Ahadjon o‘g‘li Aqaraliyev. “Mulla Qori Khokandi Literary Heritage: Analysis And Interpretation”. CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH 2.1(2022):217-220



---

Research Science and  
Innovation House